Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



INVESTITSIYANING IQTISODIY MOHIYATI VA O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyaning iqtisodiy mazmun-mohiyati, uning iqtisodiy barqaror o'sishdagi ahamiyati va faol investitsiya siyosatini yurg'izishda davlat boshqaruvi, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion jara-yonlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya jarayoni, ob'yekti, sub'yekti, investor, investitsion siyosat, aholi jon boshiga o'zlashtirilgan investitsiyalar.

Abstract: This article provides information on the economic content of investment, its role as an important factor in ensuring sustainable economic growth and public administration in pursuing an active investment policy, as well as investment processes in the economy of Uzbekistan.

Key words: Investment, investment activity, investment process, object, subject, investment policy, investor, investments in fixed capital per capita.

Аннотация: В статье представлена информация об экономическом содержании инвестиции, ее роль как важного фактора обеспечения устойчивого экономического роста и государственного управления в проведении активной инвестиционной политики, а также инвестиционных процессов в экономике Узбекистана.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционный процесс, объект, субъект, инвестиционная политика, инвестор, инвестиции в основной капитал на душу населения.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalarga bog'liq. Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda bu narsa yaqqol namoyon bo'lmoqdaki, har qanday mamlakatning bozor tamoyillari asosida rivojlanishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bog'liq.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayoni va xalqaro kapital harakatining kuchayishi rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta istiqbollarni yaratdi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekiston va uning mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muammosi yangi strategik ustuvorliklarni ishlab chiqishni talab qildi. Prezident Sh. M. Mirziyoyev (2018) ta'kidlaganidek, "chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun biz mamlakatimiz sarmoyaviy salohiyatini to'liq namoyish etish choralari ko'rishimiz kerak. Iqtisodiyotimizga sarmoya kiritmoqchi bo'lgan investorlar uchun mintaqalar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantirsak, bu borada ijobiy natijaga erishishimiz mumkin".

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni jadal rivojlantirish omillaridan biri bo'lib qolmasdan, u bir vaqtning o'zida mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ham ta'sir qiladi. Xorijiy investitsiyalar hajmi oshishi bilan mamlakatda raqamli iqtisodiyot ham rivojlanib boradi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev (2018) ta'biri bilan aytganda "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mublag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilgor tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi".

Raqamli iqtisodiyotga qisqacha qilib iqtisodiyotning raqamlashuvi ya'ni iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanishi deb ta'rif berish mumkin. Demak xorijiy investitsiyalar bilan mamlakatga yangi texnologiyalar kirib kelar ekan, u albatta bu mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat taraqqiyoti darajasi investitsiyalar orqali ta'minlanmoqda. Bugungi kunda investitsiya tushunchasi kundalik hayotimizning muhim bir qismiga aylanib ulgurd. Buning isboti o'laroq bilimga chanqoq, o'z kelajagini o'ylovchi yoshlar o'rtasida "Invest yourself", ya'ni ingliz tilidan tarjima qilinganda "o'zingga investitsiya qil" degan motivatsion undovlarni uchratishimiz mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to'g'risida iqtisodchi olimlar o'rtasida xilma-xil fikrlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;
- ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);
- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni" [1].

Qisqacha aytganda investitsiyaning vazifasi investorga foyda keltirishdir. Investitsiyalarga juda ko'plab ta'riflar mavjud. Jumladan, prof.D.G'.G'ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kateqoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta'rif berib o'tgan: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbaalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat" [2].

Prof. N. H. Haydarov investitsiyalarning mazmun-mohiyatiga quyidagi ta'rifni be'radi: "Investitsiya mulk shaklidan qat'i nazar tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning ijtimoiy va iqtisodiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashdir" [3].

Xorijlik iqtisodchi olimlardan.U. Sharp, K. Eklund, Kempbel, R. Makkonel, Stenli, L. Bryu kabilar investitsiyalarning mazmun-mohiyati yuzasidan turlicha ta'riflarni bayon etgan. Jumladan Nobel mukofotining iqtisodiyot bo'yicha laureati U. Sharp ta'kidlashicha: investitsiyalar kelgusida (ehtimol nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatliklardan voz kechishdir" [4].

Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda "investitsiya" tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyosligi uning aniq mohiyatini o'rganib chiqishni talab qiladi. Iqtisodiy lug'atda "Investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga va boshqa tarmoqlarga sarf qilinadigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi",– deb ta'riflangan. Ishlab chiqarish nazariyasi va, umuman, makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo'shib hisoblaganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olish tushiniladi, ya'ni bugungi sarf-xarajatlarning maqsadi kelajakda daromad olishdir. Demak, bizningcha, "Investitsiyalar – bo'sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy samara olish maqsadida harakatga keltirishdir" Bizga ma'lumki, iqtisodiy o'sish investitsiya resurslarisiz bo'lishi mumkin emas, bu resurslar o'z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag'dir. Pul mablag'lari shaklidagi investitsiyalar nominal investitsiyalardir. Bu investitsiyalar moddiylashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so'ng real investitsiyalarga aylanadi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalariga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin. Investitsiya jarayoni – bo'sh sarmoyaga ega bo'lganlar bilan sarmoya talab qilayotganlarning uchrashish jarayoni. Ikkala tomon, odatda, moliyaviy institutlarda yoki moliyaviy bozorda uchrashadilar. Ayrim vaqtda, xususan, mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk) bilan bitim imzolanganda sotuvchi va xaridorlar bevosita muomalaga kirishadilar. Investitsiya ob'ekti deyilganda, mablag'larni, ya'ni qonun doirasidagi barcha boyliklar safarbar qilinayotgan ob'ektlar tushiniladi, ular yangi korxonalar yoki amalda faoliyat yuritayotgan korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, intellek-

tual mulk va boshqalar bo'lishi mumkin. Investitsiya subyektlari – investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir. Odatda, har qanday investitsion faoliyat muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi. Investitsiya loyihasi tushunchasini uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, statistik kuzatish, statistik grafiklardan, shuningdek, abstraksiyalash, gruxlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari olingan.


TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohatlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq. Mustaqilligimizning qisqa davrida investitsion faollikni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o'tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tatbiq qilinmoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O'zbekiston davlati o'z investitsiya siyosatini olib bormoqda. Investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvatlash, markazlashgan investitsiya jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko'proq ustuvorlik kichik biznes subyektlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tuzishga hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal etish va shu asnda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan. Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxona investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladiga chora-tadbirlar majmuyidir. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab quvvatlash hisoblanadi.

1-jadval: Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hududlar kesimida (mln. so'm)

Hududlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
O'zbekiston Respublikasi	2,2	3,8	5,8	6,1	7,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,5	3,6	4,6	3,7	4,1
Andijon	1,0	1,6	2,4	3,0	3,8
Buxoro	6,3	5,1	5,4	6,3	9,7
Jizzax	1,4	2,7	5,8	9,0	9,3
Qashqadaryo	3,6	5,2	7,5	6,2	4,8
Navoiy	4,2	10,9	17,9	15,6	15,9
Namangan	1,3	3,0	4,3	4,2	4,6
Samarqand	1,2	1,9	2,7	3,7	4,4
Surxondaryo	1,4	2,8	4,6	3,8	4,2
Sirdaryo	2,0	3,3	7,0	8,4	10,0
Toshkent	2,1	3,9	7,0	7,2	9,5
Farg'ona	0,8	1,5	2,3	2,9	3,3
Xorazm	1,2	1,7	2,7	2,9	4,5
Toshkent sh.	5,6	10,6	16,7	19,1	20,4

Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> (jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan).




1-grafik: Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hududlar kesimida (ming. so'm)

Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> (grafik O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan).

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarga asosan deyarli barcha hududlarda besh yil (2017-2021) davomida aholi jon boshiga o'zlashtirilgan investitsiyalar yildan yilga o'sib borganligini ko'rishimiz mumkin. Asosan yuqori o'sish tendensiyasi Toshkent shahri va Navoiy viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida ushbu ko'rsatkich 2017-yildan 2019-yilgacha o'sgan va keyingi ikki yil (2020-2021) davomida kamaygan.

Shuningdek, 2-grafikdagi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 2021-yilda ba'zis yilga nisbatan qariyb 3,15 barobarga oshgan. Ya'ni 2017-yilda aholi jon boshiga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2,2 mln.so'm bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 7,0 mln. so'mga ortgan.



2-grafik: Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi kesimida (mln. so'm)

Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> (grafik O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan).



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va diversifikatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Investitsiyalar jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmish darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Ya'ni maishiy muhtojliklarning katta bo'limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, yangi mehnat kuchlari shakillanadi, eski va og'ir mehnat turmishidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o'tiladi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugungi jalb qilingan investitsiyalar va investitsion jarayonlar belgilab beradi. Yuqorida keltirib o'tilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra mamlakatimizga jalb qilinayotgan investitsiyalar yildan-yilga oshib bormoqda, buning natijasi uzoq yillar davomida o'z samarasini berib boradi. Albatta, mamlakatning iqtisodiy o'sishida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta, shuningdek, investitsion faoliyatni to'g'ri tashkil etish – investitsiyalarni to'g'ri va istiqbolli joylashirishni anglatadi. Shu sababli ham investitsion loyihalarning qisqa va uzoq muddatlardagi istiqbolini prognoz qilish hamda iqtisodiy va moliyaviy tahlilini qilish lozim bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga tayanib shuni ma'lum qilish mumkinki, mamlakatimiz aholisi soni o'sish tendensiyasiga ega. Bunga proporsional tarzda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar yildan-yilga o'sib bormoqda. Ushbu o'sishni mamlakatda olib borilayotgan investitsion siyosatning samarasi sifatida ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 25.12.2019 y., O'RQ-598-son.
2. D.G'.G'ozibekov. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. –T: "Moliya" nashriyoti.,2003.,23-bet.
3. N.X.Haydarov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalasi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.,2003.
4. U.Sharp, G.Aleksandr,J.Beyli. Investments. –M.:Infra-M.1997.
5. N.G'.Karimov,R.X.Xojimatov,J.X.Razzoqov. Investitsiya. –T: "Iqtisodiyot",2019., O'quv qo'llanma.
6. M.S.Qosimov., Investitsiya loyihalari tahlili. Darslik. –T: " Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa-uyi", 2021.
7. N.G'.Karimov, A.S.Axmedov. Moliya asoslari: moliya va investitsiyalar. O'quv qo'llanma.–T: " Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa-uyi", 2021.
8. R.S.Muratov,A.S.Kucharov,D.M.Rasulev. Investitsion tahlil. Darslik. –T., 2017.
9. Investments by Zvi Bodie Alex Kane Alan J. Marcus Eleventh edition. | New York, NY: McGraw-Hill Education, 2018.
10. Foreign Direct Investment in Developing Countries by Sarbajit Chaudhuri, Ujjaini Mukhopadhyay. Springer New Delhi Heidelberg New York Dordrecht London.2014.
11. Samijonov, M. (2022). O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining tarmoq va hududiy xususiyatlari. Academic research in educational sciences. 3(1), 359-365.
12. Samijonov M. (2023). Foreign Investment Is The Basis For Economic Development. International Scientific Research Conference. 2(13), 97-99.
13. Samijonov M. (2022). Xorijiy investitsiyalar–iqtisodiyotni rivojlantirishning asosi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2(3), 275-279.
14. www.xs.uz
15. www.lex.uz
16. www.stat.uz
17. www.cbu.uz

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.